

## TALABALARNING INGLIZ TILI DARSLARIDAGI AKADEMIK NATIJALARINI OSHIRISHDA RUBRIK ASOSIDA BAHOLASHNING AHAMIYATI

**Safarmatova Odinaxon Mahmud qizi,**  
Guliston davlat pedagogika instituti  
Xorijiy tillar kafedrasida stajyor-o'qituvchisi  
Email: [rajabovaodina@gmail.com](mailto:rajabovaodina@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tili darslarida rubrik asosida baholashning talabalarning akademik natijalarini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida an'anaviy baholash usullari ko'pincha subyektivlik va shaffoflik yetishmasligi bilan xarakterlanadi. Rubrik asosida baholash esa aniq mezonlar orqali baholashni standartlashtiradi va talabalar uchun topshiriqlar tushunarli bo'ladi. Maqolada rubrik asosida baholashning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni, hamda konstruktiv feedbackning ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, rubrik asosida baholash talabalarning motivatsiyasini oshiradi, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi va akademik natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolaning maqsadi – rubrik asosida baholashning nazariy asoslarini tahlil qilish va uning ingliz tili ta'limidagi samaradorligini aniqlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** rubrik asosida baholash, ingliz tili ta'limi, akademik natijalar, formativ baholash, feedback, oliy ta'lim.

**Аннотация.** В данной статье анализируется значение рубрикаторного оценивания в повышении академических результатов студентов на занятиях по английскому языку. В современной системе образования традиционные методы оценивания часто характеризуются субъективностью и недостаточной прозрачностью. В отличие от них, оценивание на основе рубрик стандартизирует процесс оценки за счёт чётко определённых критериев и делает задания более понятными для студентов.

В статье рассматриваются виды рубрик, их роль в развитии языковых навыков, а также значение конструктивной обратной связи на основе научных источников. Результаты анализа показывают, что рубрикаторное оценивание способствует повышению мотивации студентов, развитию навыков самооценки и оказывает положительное влияние на их академические достижения. Цель данной статьи – проанализировать теоретические основы рубрикаторного оценивания и определить его эффективность в преподавании английского языка.

**Ключевые слова:** рубрикаторное оценивание, обучение английскому языку, академические результаты, формативное оценивание, обратная связь, высшее образование.

**Abstract.** This article analyses the importance of using rubrics and feedback in the process of assessing university students. The traditional assessment styles are often characterized as lacking exact assessment points. Rubric-based assessment standardizes marking with exact points and the tasks will be understandable for students. In this article, the importance of rubrics and constructive feedback in higher education will be discussed with the help of scientific evidences. Researches show that rubric-based assessment improves students' motivation towards education, encourages self-assessment and academic performance. The aim of this article- to analyze scientific points of rubric-based assessment and its importance of using in teaching English language.

**Keywords:** Rubric-based assessment, English language education, academic performance, formative assessment, feedback, higher education.

**Kirish.** Oliy ta'lim tizimida baholash jarayoni nafaqat talabalarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning o'quv faoliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda baholash o'quv jarayonining ajralmas qismi

sifatida qaralib, u faqat yakuniy natijani o'lchash bilan cheklanib qolmay, balki o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida e'tirof etiladi.

Ingliz tili darslarida baholash ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki til o'rganish ko'p komponentli va murakkab jarayon bo'lib, unda grammatika, leksika, talaffuz, tinglab tushunish, o'qish va yozish kabi ko'nikmalar kompleks tarzda shakllanadi. Shu sababli baholash jarayoni ham har tomonlama, tizimli va aniq mezonlarga asoslangan bo'lishi zarur. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda baholashning shaffof va tushunarli bo'lishi muhim omillardan biri hisoblanadi. An'anaviy baholash usullari ko'pincha aniq mezonlarga ega bo'lmagani sababli subyektivlikka olib keladi hamda baholash natijalarining ishonchliligini pasaytiradi. Bunday yondashuvda talabalar baho qanday qo'yilganini to'liq anglamasligi mumkin, bu esa ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi. Shu bilan birga, baholash mezonlarining noaniqligi o'qituvchilar o'rtasida ham turli xil talqinlarga sabab bo'lishi mumkin.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida zamonaviy ta'lim tizimida rubrik asosida baholash keng qo'llanilmoqda. Rubrikalar baholash mezonlarini aniq, tushunarli va tizimli shaklda ifodalab, baholash jarayonining shaffofligini ta'minlaydi. Ular yordamida talabalar topshiriqdan qanday natija kutilayotganini oldindan bilib oladi va o'z faoliyatini shu asosda rejalashtiradi. Natijada o'quv jarayoni yanada maqsadga yo'naltirilgan va samarali bo'ladi. Bundan tashqari, rubrikalar talabalarning o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalar o'z ishlarini berilgan mezonlar asosida tahlil qilib, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ularning mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, rubrikalar o'qituvchi va talaba o'rtasida samarali feedback almashinuvini yo'lga qo'yishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, rubrik asosida baholash ingliz tili ta'limida nafaqat baholash vositasi, balki o'qitish va o'rganish jarayonini takomillashtiruvchi innovatsion yondashuv sifatida qaraladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Rubrik asosida baholash zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan va samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan yondashuvlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar baholash jarayonini faqat natijani o'lchash vositasi sifatida emas, balki o'quv jarayonini rivojlantiruvchi muhim mexanizm sifatida ko'rib chiqmoqda. Formativ baholash nazariyasi doirasida Paul Black va Dylan Wiliam (1998) baholashning o'quv natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, samarali baholash tizimi talabalarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning o'rganish jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlaydi. Ayniqsa, feedback orqali berilgan ko'rsatmalar talabalarning xatolarini anglash va ularni tuzatishda muhim rol o'ynaydi.

Rubrik asosida baholashning nazariy asoslari Susan M. Brookhart (2013) tomonidan batafsil yoritilgan bo'lib, u rubrikalarni baholash mezonlarini aniq belgilovchi va baholash jarayonini standartlashtiruvchi vosita sifatida tavsiflaydi. Brookhartning fikricha,

rubrikalar nafaqat baholashni soddalashtiradi, balki talabalarga o'z faoliyatini mustaqil ravishda tahlil qilish imkonini ham beradi.

Shuningdek, Jonsson Anders va Gunilla Svingby (2007) rubrikalarning ishonchliligi va haqqoniyligini tahlil qilib, ularning baholashdagi subyektivlikni kamaytirishini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, aniq ishlab chiqilgan rubrikalar o'qituvchilar o'rtasida baholashda bir xillikni ta'minlaydi. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rubrik asosida baholash va konstruktiv feedback o'zaro bog'liq bo'lib, ular birgalikda qo'llanilganda talabalarning akademik natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv talabalarning mustaqil o'rganish, refleksiya qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rubrik asosida baholash ingliz tili ta'limida samarali va zamonaviy yondashuv hisoblanadi. U baholash jarayonining shaffofligini ta'minlaydi, subyektivlikni kamaytiradi va talabalar faoliyatini yanada ongli qiladi. Biroq, rubriklardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, rubrikalarni noto'g'ri tuzish ularning samaradorligini kamaytirishi mumkin. Shu sababli rubriklarni ishlab chiqishda aniq mezonlar va tushunarli tavsiflar berilishi zarur

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot yondashuvi sifatida empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Ilmiy adabiyotlar tahlili
- Ingliz tili darslarini kuzatish
- Rubrik asosida baholash namunalarini tahlil qilish
- Talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish

Tadqiqotda institutning 20 nafar 1-kurs talabalari ishtirok etdi. Talabalarga ikki marta topshiriqlar berildi. 1-marta berilgan topshiriq an'anaviy usullarda baholandi. Talabalarga 2-beriladigan topshiriq uchun avvaldan rubrik taqdim qilindi. 2-topshiriq rubrik asosida tekshirildi. 2-topshiriqni baholashda analytic rubric turidan foydalanildi, sababi ushbu rubric nafaqat baholash, balki talabalarga o'zlari bajargan topshiriqlariga feedback berish imkoniyatini ham yaratdi.

**Tahlillar va natijalar.** Rubriklarning oliy ta'limdagi qo'llanilishi bo'yicha Yasmeeen M. Reddy va Heidi Andrade (2010) tomonidan olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, rubrikalar talabalar faoliyatini baholashda samarali vosita bo'lib, ularning akademik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular rubrikalardan foydalanish talabalarning topshiriqlarni yaxshiroq tushunishiga va natijada sifatliroq ish bajarishiga olib kelishini aniqlagan.

Feedbackning o'rni ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. John Hattie va Helen Timperley (2007) feedbackni o'quv jarayoniga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida baholaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, aniq va o'z vaqtida berilgan feedback talabalarning akademik muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, David Nicol va Debra Macfarlane-Dick (2006) feedbackning o'z-o'zini boshqarish (self-

regulated learning) ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Ularning modeliga ko'ra, samarali feedback talabalarni mustaqil o'rganishga yo'naltiradi va ularning reflektiv fikrlashini rivojlantiradi.

Ingliz tili ta'limi kontekstida rubrikalar ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Chunki til o'rganish ko'p komponentli jarayon bo'lib, unda grammatika, leksika, talaffuz, ravonlik va mantiqiy izchillik kabi ko'rsatkichlar baholanadi. Analitik rubrikalar har bir komponentni alohida baholash imkonini beradi va bu baholashning aniqligini oshiradi.

Bundan tashqari, Eduardo Panadero va Anders Jonsson (2013) rubrikalarning formativ baholashdagi rolini tahlil qilib, ularning talabalarning motivatsiyasi va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishini aniqlagan. Ularning fikricha, rubrikalar orqali talabalar baholash mezonlarini oldindan biladi va o'z faoliyatini shu asosda rejalashtiradi.

**Main skill:** Writing

**Integrated skills:** Grammar, Vocabulary, Critical thinking

**Rubric:** Analytic

**Task assessment:** The students were provided with scaffolding for writing an email, for example, opening/closing phrases, linking words, etc. Students should develop an email for their friend with some tasks that are asked in the task outline.

**Assessment outline:** Students should write an email for their friend in the theme of "Inviting for Eating Out." Their email should be between 50 and 80 words. Students firstly gather some ideas together on the whiteboard, like brainstorming, and then the teacher gives some necessary phrases for writing an email.

**Rationale:** I chose an analytic rubric for this assessment because I can give some feedback for their work with the help of this rubric. Analytic rubrics are better for helping learners understand the specific areas of writing and which parts of their work should be improved. Also, it supports self-regulated learning.

### 1-jadval

Criteria	Excellent (4 points)	Good (3 points)	Fair (2 points)	Needs improvement (1 point)
<b>Content</b>	Able to write an email with specific details for eating out, like inviting and suggesting, making arrangements, etc., without any grammatical and vocabulary errors.	Able to write an email, with some minor mistakes like with the usage of articles, plurals or singulars, etc., but still including specific details of inviting to eat out	Able to organize an email but missing specific details for wanting to eat out, with frequent grammatical and vocabulary mistakes.	An email is unclear and difficult to understand.

<b>Organization and structure (paragraphing)</b>	An email is well-organized, with dividing into paragraphs with the following coherence/cohesion. The student is able to use linking words and phrases effectively.	Email is generally well-organized. But it lacks some conjunctions and linking words	The organization is somehow unclear and does not follow the coherence/cohesion, missing opening/closing phrases and linking words.	Email lacks clear organization. There is no paragraphs and useful phrases.
<b>Correct grammar usage</b>	Able to use the correct grammar topic, like future for eat out arrangement	Able to use the correct grammar, but with some mistakes in grammatical structure	The student is able use grammar in their email, but mixing some tenses	The student is not able to choose correct grammar tense for writing.
<b>Vocabulary</b>	Able to use a wide range of vocabulary	Able to use a wide range of vocabulary, with some spelling errors.	The student confuses some words, like using inappropriate words in the email	Vocabulary is very limited and inappropriate for the task.
<b>Word count</b>	Above 80 words	Between 50 and 80 words	Below 50 words	Limited between 30-40 words.

So‘rovnoma orqali ularning rubrik asosida baholashga bo‘lgan munosabati va uning samaradorligi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. **Akademik natijalar yaxshilandi.** Rubrik asosida baholanganda talabalar topshiriqlarni aniqroq va sifatliroq bajargan. Avvalgi topshiriqqa taqqoslanganda, 2-topshiriqda talabalar topshiriqqa nisbatan ancha aniqroq va izchilroq yondashilgani sezildi

2. **Shaffoflik ta‘minlandi.** Talabalar baholash mezonlarini oldindan tushunib, bahoga nisbatan e‘tirozlari kamaygan. Talabalar qanday va qaysi mezonlar asosida baholanishganini o‘zlari kuzatib turishdi. Bundan tashqari, baholanish jarayoni ancha oson va shaffof kechdi. Baholash jarayonidagi inson omillari va subyektiv baholash tartibi talabalarning

3. **Motivatsiya oshdi.** Aniq talabalar talabalarni faolroq ishlashga undagan. Ular o‘zlaridan kutilayotgan aniq natijalarni tushunib, berilgan talablar bo‘yicha izchilroq ish olib borishdi.

4. **O‘z-o‘zini baholash rivojlandi.** Talabalar topshiriqdan oldin o‘z ishlarini tekshirishga odatga aylantirishdi. Topshiriqni taqdim qilishdan avval double-check (qayta tekshirish) ko‘nikmasini shakllantirishdi.

**Xulosa.** Rubrik asosida baholash ingliz tili darslarida talabalarning akademik natijalarini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. U baholashning shaffofligi va adolatligini ta‘minlaydi, talabalar motivatsiyasini oshiradi va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Baholashning ushbu turi professor-o‘qituvchilar uchun ham, talabalar uchun ham birdek qulay va shaffof baholash jarayonini tashkil qilishga yordam

beradi. Bundan tashqari, topshiriq so‘nggida aynan qanday natija kutilayotganini oldindan aniq bilib, keyin topshiriqni bajarish jarayoniga o‘tish talabalarga ancha qulaylik tug‘diradi, Natijada, baholash jarayonida deyarli inson omili qatnashmaydi, subyektiv emas aniq me‘zonlar asosida baholash kafolatlanadi.

Kelgusida rubrik asosida baholashni yanada chuqurroq o‘rganish va uni ta‘lim tizimiga keng joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7–74. <https://doi.org/10.1080/0969595980050102>
2. Brookhart, S. M. (2013). *How to create and use rubrics for formative assessment and grading*. ASCD.
3. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. *Review of Educational Research*, 77(1), 81–112. <https://doi.org/10.3102/003465430298487>
4. Jonsson, A., & Svingby, G. (2007). The use of scoring rubrics: Reliability, validity and educational consequences. *Educational Research Review*, 2(2), 130–144. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2007.05.002>
5. Nicol, D. J., & Macfarlane-Dick, D. (2006). Formative assessment and self-regulated learning: A model and seven principles of good feedback practice. *Studies in Higher Education*, 31(2), 199–218. <https://doi.org/10.1080/03075070600572090>
6. Panadero, E., & Jonsson, A. (2013). The use of scoring rubrics for formative assessment purposes revisited: A review. *Educational Research Review*, 9, 129–144. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2013.01.002>
7. Reddy, Y. M., & Andrade, H. (2010). A review of rubric use in higher education. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 35(4), 435–448. <https://doi.org/10.1080/02602930902862859>

